



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSİYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	



IQTISODIYOT EKONOMIKA

SANOAT KORXONALARINING INVESTITSİYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI

Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti
“Iqtisodiyot va boshqaruv” kafedrası doktoranti
Email: saodatkarim08@gmail.com
ORCID: 0009-0002-2287-1408

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada sanoat korxonalarida investitsiyalar tarkibi, ularning shakllanish manbalari va foydalanish samaradorligini iqtisodiy tahlil qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda investitsiyalarning asosiy kapitalga yo'naltirilishi, texnik va texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, sanoat korxonalarida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholashda rentabellik, kapital qaytimi, investitsiya sig'imi, sof joriy qiymat, ichki daromadlilik normasi va investitsiyalarning qoplanish muddati kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarning ahamiyati asoslab beriladi. Maqolada investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish va hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat korxonalarida investitsiyalar tarkibini optimal shakllantirish va ularning samaradorligini muntazam baholab borish korxonaning barqaror rivojlanishi hamda investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalari, investitsiya tarkibi, investitsiya samaradorligi, asosiy kapital, iqtisodiy tahlil, kapital qaytimi, rentabellik, investitsion faoliyat, modernizatsiya, raqobatbardoshlik.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются вопросы экономического анализа структуры инвестиций промышленных предприятий, источников их формирования и эффективности использования. В исследовании анализируется роль инвестиций, направляемых в основной капитал, в технической и технологической модернизации, расширении производственных мощностей, а также развитии инновационной деятельности. Кроме того, обосновывается значение таких экономических показателей, как рентабельность, капиталоотдача, инвестиционная ёмкость, чистая приведённая стоимость, внутренняя норма доходности и срок окупаемости инвестиций при оценке эффективности использования инвестиций на промышленных предприятиях. В статье рациональное использование инвестиционных ресурсов рассматривается как важный фактор повышения конкурентоспособности промышленных предприятий, снижения себестоимости продукции, роста производительности труда и обеспечения регионального экономического роста. По результатам исследования установлено, что оптимальное формирование структуры инвестиций на промышленных предприятиях и регулярная оценка их эффективности способствуют устойчивому развитию предприятия и повышению его инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: промышленные предприятия, структура инвестиций, эффективность инвестиций, основной капитал, экономический анализ, капиталоотдача, рентабельность, инвестиционная деятельность, модернизация, конкурентоспособность.

Abstract: This scientific article examines the economic analysis of the investment structure of industrial enterprises, the sources of their formation, and the efficiency of their use. The study analyzes the role of investments directed to fixed capital in technical and technological modernization, expansion of production capacities, and development of innovative activities. In addition, the article substantiates the importance of economic indicators such as profitability, capital productivity, investment intensity, net present value, internal rate of return, and the payback period of investments in assessing the efficiency of investment use at industrial enterprises. The rational use of investment resources is considered an important factor in increasing the competitiveness of industrial enterprises, reducing production costs, improving labor productivity, and ensuring regional economic growth. The results of the study show that the optimal formation of the investment structure at industrial enterprises and the regular assessment of their efficiency contribute to the sustainable development of enterprises and the improvement of their investment attractiveness.

Keywords: industrial enterprises, investment structure, investment efficiency, fixed capital, economic analysis, capital productivity, profitability, investment activity, modernization, competitiveness.



KIRISH

Bugungi kunda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bevosita investitsiyalarning hajmi, tarkibi hamda ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liqdir. Investitsiyalar iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va korxonalarining eksport salohiyatini oshirishda muhim moliyaviy-iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning maqsadli va samarali taqsimlanishi ishlab chiqarish fondlarini yangilash, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda umumiy qiymati 150 milliard AQSH dollari bo'lgan 400 dan ziyod strategik ahamiyatga ega texnologik va infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan.¹ Bu esa investitsiyalar sanoat tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda strategik omil ekanligini ko'rsatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan sanoat tarmoqlarida yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va investitsiya loyihalarini hududlar kesimida jadallashtirish masalalariga alohida urg'u berilmoqda. Jumladan, 2026-yil 2-iyun kuni kimyo sanoatini jadal rivojlantirish va hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'nggi yillarda sanoat tarmoqlarida 3 ming turdagi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani, PVX, "yashil" vodorod, ko'pikli polipropilen, BOPP plyonka kabi 60 dan ziyod yuqori qo'shilgan qiymatli yangi mahsulotlar ishlab chiqarish o'zlashtirilgani ta'kidlandi.² Bu fikrlar sanoat korxonalarida investitsiyalar tarkibini takomillashtirish, ularni modernizatsiya, innovatsiya va yuqori texnologik ishlab chiqarish yo'nalishlariga yo'naltirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

2026-yilning dastlabki choragi bo'yicha statistik ma'lumotlar ham investitsiya jarayonlarining iqtisodiyotdagi faolligini tasdiqlaydi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning I choragida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 156,3 trillion so'mga yetgan.³ Ushbu ko'rsatkich sanoat korxonalarida investitsiya resurslarining tarkibi, manbalari va ulardan foydalanish samaradorligini chuqur iqtisodiy tahlil qilish dolzarbligini ko'rsatadi. Chunki investitsiya hajmining ortishi o'z-o'zidan korxonalar samaradorligini ta'minlamaydi, bunda investitsiyalarning qaysi yo'nalishlarga sarflangani, ularning ishlab chiqarish hajmi, kapital qaytimi, rentabellik, mahsulot tannarxi va eksport salohiyatiga ta'siri alohida baholanishi lozim.

Sanoat korxonalarida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholashda faqat jalb etilgan mablag'lar hajmini emas, balki ularning tarkibiy tuzilishini ham tahlil qilish muhimdir. Investitsiyalar asosiy kapitalni yangilash, aylanma mablag'larni to'ldirish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va inson kapitalini rivojlantirish kabi yo'nalishlarga sarflanishi mumkin. Har bir yo'nalishning korxonalar iqtisodiy natijalariga ta'sirini aniqlash esa investitsion qarorlarning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Sanoat korxonalarining investitsiyalari tarkibini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish va ulardan foydalanish samaradorligini baholash bugungi kundagi dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada sanoat korxonalarida investitsiyalarning tarkibiy yo'nalishlari, moliyalashtirish manbalari, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda ularning korxonalar barqaror rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida investitsiya resurslarini oqilona taqsimlash, ularning samaradorligini oshirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarining investitsiyalari tarkibi va ulardan foydalanish samaradorligini iqtisodiy tahlil qilish masalasi iqtisodiyot fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy nazariyalarda

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Kimyo sanoatini jadal rivojlantirish vazifalari belgilandi. 02.06.2026. — URL: [president.uz](https://www.president.uz).

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2026-yilning I choragida asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha statistik ma'lumotlar. — URL: stat.uz.



investitsiyalar ishlab chiqarishni kengaytirish, asosiy kapitalni yangilash, texnologik modernizatsiya va korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Jumladan, J.M. Keynes investitsiyalarni yalpi talab, bandlik va iqtisodiy faollikni oshiruvchi muhim vosita sifatida baholab, investitsion faollik kutilayotgan daromad va iqtisodiy muhitga bo'lgan ishonch bilan bog'liqligini ta'kidlaydi⁴.

D.W. Jorgensonning neoklassik investitsiya nazariyasida investitsiya qarorlari kapitalga bo'lgan talab, ishlab chiqarish omillari narxi va kapital qiymati bilan izohlanadi. Uning fikricha, korxonada foydani oshirish maqsadida kapital resurslaridan optimal foydalanishga intiladi⁵. J. Tobin esa investitsion qarorlarni korxonada kapitalning bozor qiymati va uning tiklash qiymati o'rtasidagi nisbat orqali tushuntiradi. Bu yondashuv sanoat korxonalarida investitsiya kiritishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi⁶.

Xalqaro olimlardan Z. Bodie, A. Kane va A.J. Marcus investitsiyalarni baholashda risk va daromadlilik nisbatiga alohida e'tibor qaratadi. Ularning fikricha, har qanday investitsion qaror kutilayotgan daromad, tavakkalchilik darajasi va kapitalning qaytish muddati asosida qabul qilinishi lozim⁷. Ushbu qarash sanoat korxonalarining investitsiyalari tarkibini shakllantirishda mablag'larni faqat asosiy kapitalga emas, balki innovatsion texnologiyalar, ishlab chiqarish infratuzilmasi va inson kapitaliga ham samarali yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

MDH olimlari tomonidan investitsiya samaradorligi ko'proq korxonaning moliyaviy barqarorligi, kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati, rentabellik va pul oqimlari bilan bog'liq holda o'rganilgan. Xususan, V.V. Kovalyov investitsion loyihalarni baholashda sof joriy qiymat, ichki daromadlilik normasi, rentabellik indeksi va qoplanish muddati kabi ko'rsatkichlardan foydalanish zarurligini asoslaydi. I.A. Blank esa investitsion menejmentda korxonada investitsiya siyosati, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va investitsion risklarni boshqarish masalalarini muhim deb hisoblaydi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida investitsiyalar O'zbekiston sanoatini modernizatsiya qilish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning muhim omili sifatida talqin qilinadi. O.T. Astanakulov korxonalarining investitsiya faoliyatini tahlil qilishda moliyaviy, ishlab chiqarish va strategik ko'rsatkichlarni kompleks baholash zarurligini ta'kidlaydi⁸. A.B. Bektemirov, N.X. Ruzibayeva va R.I. Azimova esa investitsiyalarni innovatsion rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonini yangilash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy resurs sifatida izohlaydi.

Ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining investitsiyalari tarkibi va ulardan foydalanish samaradorligini baholashda kompleks yondashuv zarur. Bunda investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari, asosiy kapitalga yo'naltirilishi, innovatsion texnologiyalarga sarflanishi, ishlab chiqarish hajmi, rentabellik, kapital qaytimi va mehnat unumdorligiga ta'siri o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinishi lozim. Tadqiqot natijasida sanoat korxonalarida investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarining investitsiyalari tarkibi va ulardan foydalanish samaradorligini iqtisodiy jihatdan baholashda tizimli yondashuv, taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy-statistik tahlil hamda monografik kuzatish usullaridan foydalanildi. Investitsiyalar tarkibi moliyalashtirish manbalari, yo'naltirilish sohasi, asosiy kapitalga kiritilgan mablag'lar, modernizatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish xarajatlari bo'yicha tahlil qilindi. Shuningdek, sanoat korxonalarida investitsiya resurslaridan foydalanish holati ishlab chiqarish hajmi, kapital qaytimi, rentabellik, investitsiya sig'imi va mehnat unumdorligi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholandi.

Tadqiqot jarayonida rasmiy statistik ma'lumotlar, sanoat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, Prezident qarorlari va iqtisodiy adabiyotlarda ilgari surilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar asosiy axborot manbai sifatida olindi. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini aniqlashda tahliliy umumlashtirish, dinamik tahlil va iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirish usullari qo'llanildi hamda bu yondashuv sanoat korxonalarida investitsiyalar tarkibining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini aniqlash, investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga yordam beradi.

4 Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — London: Macmillan, 1936.

5 Jorgenson D.W. Capital Theory and Investment Behavior // American Economic Review. — 1963.

6 Tobin J. A General Equilibrium Approach to Monetary Theory // Journal of Money, Credit and Banking. — 1969.


7 Bodie Z., Kane A., Marcus A.J. Investments. — McGraw-Hill Education.

8 Astanakulov O.T. Korxonalar investitsiya faoliyati tahlili metodologiyasini takomillashtirish. — Toshkent, 2020.




TAHLIL VA NATIJALAR

2023–2026-yillar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda investitsion faollik barqaror o'sish tendensiyasiga ega. 2023-yil yanvar–mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 67,0 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning mos davrida bu ko'rsatkich 104,5 trln so'mga, 2025-yilda 117,6 trln so'mga, 2026-yilning I choragida esa 156,3 trln so'mga yetgan. Bu holat sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, asosiy fondlarni yangilash va texnologik modernizatsiya jarayo




1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (2023-2026)

2023–2025-yillarning yillik ko'rsatkichlari ham investitsiyalar hajmining izchil oshganini tasdiqlaydi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2023-yilda 356,1 trln so'm, 2024-yilda 507,5 trln so'm, 2025-yilda esa 591,1 trln so'mni tashkil etgan. Ushbu o'sish sanoat tarmoqlarida yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish, korxonalarni texnik qayta jihozlash va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi


2026-yilning I choragida investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati 28,5 foiz ulush bilan yetakchi o'rinni egallagan. Bu ko'rsatkich sanoat tarmoqlarining investitsion jarayonlardagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Qurilish, elektr energiyasi va gaz ta'minoti, qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoati ham investitsiyalar tarkibida muhim o'ringa ega bo'lsa-da, ishlab chiqarish sanoatining yuqori ulushi aynan real sektorni modernizatsiya qilish va sanoat mahsulotlari hajmini oshirishga qaratilgan investitsion siyosatning ustuvorligini anglatadi (3-rasm).



3-rasm. Investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (2026-y I chorak b)

Moliyalashtirish manbalari tarkibida esa xorijiy investitsiyalar va kreditlar 75,7 foiz bilan eng katta ulushni tashkil qilgan. Korxonalar va tashkilotlar mablag'lari 13,1 foiz, aholi mablag'lari 5,6 foiz, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 2,7 foiz, respublika budjeti mablag'lari esa 2,5 foizni tashkil etgan. Bu holat sanoat korxonalarida investitsion rivojlanish tashqi moliyaviy resurslar bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ichki moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan investitsiya qilish salohiyatini oshirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

4-rasmda keltirilgan takomillashtirish mexanizmi sanoat korxonalarida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash jarayonini bosqichma-bosqich ifodalaydi. Modelning birinchi bosqichida investitsiya resurslari manbalari ko'rsatilgan bo'lib, ular korxonaning o'z mablag'lari, bank kreditlari, xorijiy investitsiyalar, budget va jamg'arma mablag'laridan iborat. Bu manbalar korxonaning investitsion imkoniyatlarini shakllantiradi va keyingi bosqichda investitsiyalarning qaysi yo'nalishlarga sarflanishini belgilaydi (4-rasm).



4-rasm. Sanoat korxonalarida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash mexanizmi

Ikkinchi bosqichda investitsiyalar tarkibi yoritilgan. Bunda mablag'lar asosiy kapitalni yangilash, modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, infratuzilma va kadrlar salohiyatini rivojlantirishga



yo'naltiriladi. Aynan ushbu yo'nalishlar sanoat korxonasi uchun ishlab chiqarish quvvati, mahsulot sifati va texnologik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi bosqichda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholovchi asosiy ko'rsatkichlar berilgan. Kapital qaytimi, rentabellik, qoplanish muddati, NPV, IRR, investitsiya sig'imi va mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlar investitsiya loyihasining iqtisodiy jihatdan qanchalik foydali ekanligini aniqlash imkonini beradi. Bu ko'rsatkichlar orqali korxonalar investitsiya qarorlarining moliyaviy natijalarini chuqur tahlil qiladi.

To'rtinchi bosqichda investitsiyalar natijasida yuzaga keladigan samaradorlik ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Jumladan, ishlab chiqarish hajmining ortishi, tannarxning pasayishi, raqobatbardoshlikning oshishi va eksport salohiyatining kengayishi sanoat korxonasi uchun bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, modelda tahlil usullari, risklarni baholash, samaradorlik mezonlari va boshqaruv qarorlari ham alohida ajratilgan. Bu esa investitsiya jarayonini faqat mablag' kiritish emas, balki uni doimiy nazorat qilish, qayta baholash va samarali boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatilgan mexanizm sanoat korxonalarida investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish, ularning tarkibini to'g'ri shakllantirish va iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Mexanizmdan foydalanish korxonalarida investitsion qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish, risklarni kamaytirish, kapital qaytimini oshirish hamda ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada sanoat korxonalarining investitsion jozibadorligi, raqobatbardoshligi va iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarining investitsiyalari tarkibi va ulardan foydalanish samaradorligini iqtisodiy tahlil qilish bugungi sharoitda korxonalar barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar hajmining ortishi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, asosiy kapitalni yangilash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Biroq investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi faqat ularning umumiy hajmi bilan emas, balki tarkibiy yo'nalishlari, moliyalashtirish manbalari va ishlab chiqarish natijalariga ta'siri orqali baholanishi lozim.

2023–2026-yillar ma'lumotlari asosida olib borilgan tahlillar investitsiya jarayonlarida ishlab chiqarish sanoatining yetakchi o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2026-yilning I choragida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibida ishlab chiqarish sanoati ulushining yuqoriligi sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari jadallashayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushining yuqoriligi sanoat korxonalarida investitsion faoliyatida tashqi moliyaviy resurslarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida sanoat korxonalarida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholashda kapital qaytimi, rentabellik, investitsiya sig'imi, qoplanish muddati, sof joriy qiymat, ichki daromadlilik normasi va mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish zarurligi asoslandi. Ushbu ko'rsatkichlar investitsiya loyihalarining nafaqat moliyaviy natijalarini, balki ishlab chiqarish samaradorligi, tannarx, texnologik yangilanish va raqobatbardoshlikka ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Sanoat korxonalarida investitsiyalar tarkibini optimal shakllantirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsiya loyihalarini iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida tanlash va ularning natijalarini doimiy monitoring qilish muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalardan oqilona foydalanish korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli sanoat korxonalarida investitsiya siyosatini takomillashtirishda ilmiy asoslangan tahlil usullaridan foydalanish, innovatsion va energiya tejamkor texnologiyalarga ustuvorlik berish, ichki moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda investitsion risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish orqali sanoat korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi, hududiy iqtisodiy o'sish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Kimyo sanoatini jadal rivojlantirish vazifalari belgilandi. 02.06.2026. — URL: president.uz. Murojaat qilingan sana: 09.06.2026.



3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2026-yilning I choragida investitsiyalar hajmi 156,3 trln so'mga yetdi. 30.04.2026. — URL: stat.uz. Murojaat qilingan sana: 09.06.2026.
4. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — London: Macmillan, 1936.
5. Jorgenson D.W. Capital Theory and Investment Behavior // American Economic Review. — 1963.
6. Tobin J. A General Equilibrium Approach to Monetary Theory // Journal of Money, Credit and Banking. — 1969.
7. Hayashi F. Tobin's Marginal q and Average q: A Neoclassical Interpretation // Econometrica. — 1982.
8. Bodie Z., Kane A., Marcus A.J. Investments. 9th ed. — New York: McGraw-Hill/Irwin, 2011.
9. Kovalyov V.V. Investitsion tahlil. — Moskva: Finansy i statistika.
10. Blank I.A. Investitsion menejment. — Kiyev: Nika-Sentr.
11. Astanakulov O.T. Korxonalar investitsiya faoliyati tahlili metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: TMI, 2020.
12. Bektemirov A.B., Ruzibayeva N.X., Azimova R.I. Investitsiya va innovatsiyalar. O'quv qo'llanma. — Toshkent, 2020.
13. S.Karimova. "Assessment of investment efficiency based on industrial production growth rates and investment dynamics" 82-b, International Scientific-Electronic Journal "Pioneering Studies and Theories", Volume 2. Issue 1 .2026.
14. S.Karimova. "Sanoat korxonalarida investitsiya risklarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari"87-b, "Innovations in Science and Technologies" илимий-электрон журналы ISSN: 3030-3451. 3 / 2026.
15. <https://stat.uz/uz/>
16. <https://stat.uz/uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>